



SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

PhD, dots. **Artikov Zokir**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0002-5333-4376

zokirartikov86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo xizmatlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda savdo xizmatlari nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki innovatsion biznes modellarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda savdo xizmatlarining asosiy yo'nalishlari, ularning iqtisodiy samaradorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonda savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: savdo xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, elektron tijorat, strategik rivojlanish, biznes modeli, logistika, raqamli texnologiyalar, tadbirkorlik, globalizatsiya.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ТОРГОВЫХ УСЛУГ

PhD, доц. **Артиков Закир**

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье анализируются стратегические направления развития торговых услуг. В современных экономических условиях торговые услуги играют важную роль не только в обеспечении экономического роста, но и в формировании инновационных бизнес-моделей. В исследовании рассматриваются ключевые направления торговых услуг, их экономическая эффективность и перспективы дальнейшего развития. Также предложены рекомендации по модернизации торговых услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: торговые услуги, экономическая эффективность, инновации, электронная коммерция, стратегическое развитие, бизнес-модель, логистика, цифровые технологии, предпринимательство, глобализация.

STRATEGIC DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF TRADE SERVICES

PhD, assoc. prof. **Artikov Zokir**

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article analyzes the strategic directions for the development of trade services. In the modern economic environment, trade services play a crucial role not only in ensuring economic growth but also in shaping innovative business models. The research examines the key aspects of trade services, their economic efficiency, and future development prospects. Additionally, recommendations for modernizing trade services in Uzbekistan are proposed.

Keywords: trade services, economic efficiency, innovation, e-commerce, strategic development, business model, logistics, digital technologies, entrepreneurship, globalization.

Kirish.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi, xususan, savdo xizmatlari jahon iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Globalizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va iste'molchilar talabining o'zgarishi savdo xizmatlarini takomillashtirish va ularni zamonaviy strategik yo'nalishlar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida savdo xizmatlari muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish, elektron tijoratni rivojlantirish va biznes uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, savdo xizmatlarini strategik rivojlantirish jarayonida infratuzilmani yaxshilash, logistika tizimini takomillashtirish, iste'molchilar talabini chuqur o'rganish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi muhim masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada savdo xizmatlarini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari tahlil qilinib, xalqaro tajribalar va milliy iqtisodiy sharoitlar asosida samarali rivojlanish strategiyalari taklif etiladi. Shuningdek, sohadagi mavjud muammolar va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Savdo xizmatlarining iqtisodiy tabiati va tasniflanishi bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy ishlar olib borilgan. Ushbu bo'limda mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali savdo xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, ularning jamiyat va biznesdagi o'rni, shuningdek, tasniflash mezonlari haqida umumiy tasavvur hosil qilishga harakat qilinadi.

Savdo xizmatlari iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, u tovarlar va xizmatlarning iste'molchiga yetib borish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Smit (1776) va Rikardo (1817) kabi klassik iqtisodchilar bozor iqtisodiyotining samaradorligi savdo jarayonlarini rivojlantirish orqali oshishini ta'kidlaganlar. Shumpeter (1934) innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyati savdo xizmatlarining rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rgangan. Zamonaviy tadqiqotlarda (Kotler, 2016; Porter, 1985) savdo xizmatlarining marketing va logistika bilan bog'liq jihatlari chuqur tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodiyotshunoslar, jumladan Karimov (1993), Abdukarimov (2010), Tursunov kabi olimlar O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish va uni iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Chakana va ulgurji savdo tasnifi (Kotler va Keller, 2016). Ularning ta'kidlashicha, chakana savdo iste'molchilar uchun to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lsa, ulgurji savdo ishlab chiqaruvchilar va boshqa yuridik shaxslar o'rtasidagi tranzaksiyalarni anglatadi. An'anaviy va raqamli savdo xizmatlari (Laudon va Traver, 2020). Ularning fikricha, elektron tijoratning rivojlanishi an'anaviy savdo modellarini o'zgartirib, yangi xizmat turlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy va notijorat xizmatlar bilan bog'liq savdo xizmatlari (Stiglitz va Krugman, 2002). Ularning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, savdo xizmatlari nafaqat tovar aylanmasini, balki moliyaviy vositalar va iqtisodiy resurslarning taqsimotini ham ta'minlaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Qo'chqorov (2018), Salimov va Xodjayev (2017) kabi olimlar O'zbekistonda savdo xizmatlarining tasniflanishi va ularning iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan savdo xizmatlarining zamonaviy shakllari shakllanib bormoqda. Brynjolfsson va McAfee (2014) – "The Second Machine Age" asarida raqamli texnologiyalar xizmatlar bozoriga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan. OECD (2022) hisobotlari – Raqamli savdo xizmatlarining rivojlanishi va global iqtisodiyotga ta'siri haqida ma'lumot beradi. Mahalliy manbalar – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilgi

qarorlari va davlat dasturlari savdo xizmatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, savdo xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning iqtisodiy mohiyati, tasniflanishi va rivojlanishi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Ilmiy manbalarda savdo xizmatlarining an'anaviy shakllari bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida yangi xizmat turlarining paydo bo'layotgani alohida ta'kidlangan. Ushbu jihatlar maqolaning keyingi bo'limlarida batafsil tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda savdo xizmatlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash va baholash maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida ilmiy asoslangan yondashuvlar va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Savdo xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati, ularning turlari va rivojlanish tendensiyalari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va nazariyalar tahlil qilindi;
- Xalqaro va mahalliy tadqiqotlarga asoslangan holda xizmatlar sohasining zamonaviy rivojlanish modellari ko'rib chiqildi;
- Savdo xizmatlari sohasining O'zbekistondagi holatini o'rganish uchun statistik ma'lumotlar tahlili olib borildi;
- Davlat statistika qo'mitasi, Jahon Banki, BMT, va boshqa tashkilotlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida xizmatlar sektorining o'sish dinamikasi va samaradorligi baholandi;
- Xalqaro tajribalar bilan solishtirish orqali O'zbekistondagi savdo xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar shakllantirildi;
- Yetakchi mamlakatlarning savdo xizmatlari bo'yicha amaliyotlari o'rganilib, ularning milliy iqtisodiyotga mos keladigan jihatlari tahlil qilindi;
- O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishdagi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlandi;
- SWOT tahlil natijalari asosida strategik yo'nalishlar ishlab chiqildi;
- Tadqiqot natijalariga tayangan holda, O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun optimal strategiyalar tavsiya etildi;
- Raqamli transformatsiya, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasida innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks tahliliy yondashuvga asoslangan bo'lib, savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy asos yaratishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda savdo xizmatlari jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston ham bu sohaga alohida e'tibor qaratib, uni strategik yo'nalishda rivojlantirish choralari ko'rmoqda. Tadqiqot davomida O'zbekistonda savdo xizmatlarining hozirgi holati, rivojlanish dinamikasi va asosiy muammolari chuqur o'rganildi.

- ⇒ Savdo xizmatlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) sezilarli qismini tashkil etadi va yildan-yilga uning ulushi oshib bormoqda;
- ⇒ So'nggi yillarda elektron tijoratning o'sishi kuzatilmoqda. Onlayn savdo platformalari, elektron to'lov tizimlari va raqamli xizmatlar bu sohaga yangi imkoniyatlar yaratmoqda;
- ⇒ Xalqaro tashkilotlar va qo'shni davlatlar bilan savdo hamkorligi mustahkamlanib, xizmatlar eksporti hajmi oshmoqda;
- ⇒ Transport va yetkazib berish tizimlarining takomillashtirilmaganligi savdo xizmatlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda;
- ⇒ Raqamli xizmatlar va onlayn savdoni tartibga solish mexanizmlari hali to'liq rivojlanmagan;

- ⇒ Mahalliy kompaniyalar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun innovatsiyalar va xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha rivojlanishga ehtiyoj sezilmoqda;
- ⇒ Onlayn savdo platformalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va raqamli infratuzilmani mustahkamlash orqali savdo xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish mumkin;
- ⇒ Transport va logistika tizimlarini rivojlantirish orqali mahsulot va xizmatlar yetkazib berish jarayonini tezlashtirish;
- ⇒ Kichik va o'rta biznes vakillarini savdo xizmatlariga jalb qilish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish;
- ⇒ Yetakchi davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish.

2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvargacha qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilandi. Bunda: mazkur soliq imtiyozni tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi (Abdukarimov, 2016).

Tadbirkorlik subyektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvargacha qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) va-maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytiriladi (Soliev va Buzrukxonov, 2010).

Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo'llaniladi. Qaror bilan foyda solig'ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqi berildi.

1-jadval

Mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar tahlili (Farmon, 2022; Hisobot, 2022)

T/r	Hudud nomi	Tuman nomi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Taxtakopir tumani, Xo'jayli tumani, Ellikqal'a tumani
2	Andijon viloyati	Xonobod shahri
3	Buxoro viloyati	Kogon tumani, Romitan tumani
4	Jizzax viloyati	Arnasoy tumani, Forish tumani, Zomin tumani
5	Qashqadaryo viloyati	Kitob tumani, Shahrisabz tumani, Qamashi tumani
6	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani, Nurota tumani, Qiziltepa tumani
7	Namangan viloyati	Chust tumani, Yangiqo'rg'on tumani
8	Samarqand viloyati	Urgut tumani, Payariq tumani, Samarqand tumani, Toyloq tumani
9	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani
10	Surxondaryo viloyati	Boysun tumani
11	Toshkent viloyati	Angren shahri, Ohangaron tumani, Parket tumani, Bo'stonliq tumani
12	Farg'ona viloyati	Rishton tumani
13	Xorazm viloyati	Bog'ot tumani, Xiva tumani, Xiva shahri

1-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, respublikaning 13 ta hududlaridagi 31 ta tumanlarida mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi (aylanmadan olinadigan soliq stavkasini – 1 foiz) joriy etildi. (Xojiyev, 2023) Ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlarini – mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilanadi.

2-jadval

Maxsus xizmat ko'rsatish ko'chalariga aylantiriladigan markaziy ko'chalar va tashkil etiladigan servis obyektlari soni (Farmon, 2022; Hisobot, 2022; Qaror, 2022)

T/r	Hudud nomi	Ko'chalar soni	Tashkil etiladigan servis obyektlari soni
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	17	730
2	Andijon viloyati	16	593
3	Buxoro viloyati	13	603
4	Jizzax viloyati	17	622
5	Qashqadaryo viloyati	18	930
6	Navoiy viloyati	10	420
7	Namangan viloyati	22	729
8	Samarqand viloyati	20	820
9	Sirdaryo viloyati	21	1013
10	Surxondaryo viloyati	24	704
11	Toshkent viloyati	22	1159
12	Farg'ona viloyati	22	837
13	Xorazm viloyati	13	613
14	Toshkent shahar	13	653

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizning bugungi rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini rivojlantirish, uni iqtisodiyotimizning "lokomotiv"ga aylantirish YaIMni 100 milliard dollardan oshirish va pirovardida mamlakatimiz daromadi o'rtadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qo'shilishiga zamin yaratadi. Mamlakatimizda xizmatlar rivoji faqat shu sohani rivojlantiribgina qolmay, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliya, sug'urtalash xizmatlariga talabning 1 million so'mga o'sishi iqtisodiyotda qo'shimcha 3,2 million so'm qiymat yaratadi. Xuddi shunday katta multiplikativ ta'sirga ega bo'lgan sohalar qatoriga konsalting xizmatlari, yashash va umumiy ovqatlanish, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlarni kiritisa bo'ladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq, bu jarayonda infratuzilmani takomillashtirish, huquqiy bazani mustahkamlash va biznes muhitini yanada yaxshilash kabi muhim masalalar hal qilinishi lozim. Innovatsion yondashuvlar va strategik rejalashtirish orqali mamlakat savdo xizmatlarini jadal rivojlantirish hamda global bozorda o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Xulosa va takliflar.

Savdo xizmatlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, bandlik darajasi va aholining farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston so'nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish yo'lida jiddiy qadamlar tashlamoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, xizmatlar sohasi infratuzilmasining kengayishi va xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq, sohaga to'sqinlik qilayotgan muammolar – logistika tizimidagi

kamchiliklar, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, tartibga solish masalalari va xalqaro raqobatga tayyorgarlikning sustligi – hal etilishi lozim. Strategik rejalashtirish va ilg'or tajribalarni joriy qilish orqali ushbu sektorni jadal rivojlantirish mumkin.

3-jadval

Savdo xizmatlarini samarali rivojlantirish va uning strategik yo'nalishlarini belgilash borasida takliflar

1. Elektron tijoratni rivojlantirish
⇒ Raqamli to'lov tizimlarini takomillashtirish va internet-savdo platformalarini kengaytirish;
⇒ Mahalliy tadbirkorlarni raqamli xizmatlardan faol foydalanishga jalb qilish;
⇒ Kichik va o'rta biznes subyektlariga elektron tijorat bo'yicha maxsus subsidiyalar yoki imtiyozlar berish.
2. Savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish
⇒ Logistika markazlarini qurish va transport tarmoqlarini kengaytirish;
⇒ Savdo markazlari va chakana savdo tarmoqlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish;
⇒ Onlayn va oflayn savdo kanallarining integratsiyasini ta'minlash.
3. Raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsiyalarni joriy etish
⇒ Savdo xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;
⇒ Sun'iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishni kengaytirish;
⇒ Mahalliy tadbirkorlarning savdo sohasida innovatsion mahsulotlar yaratishiga ko'mak berish.
4. Huquqiy va tartibga solish tizimini takomillashtirish
⇒ Elektron tijorat va raqamli savdo bo'yicha aniq qonunchilik bazasini yaratish;
⇒ Xizmatlar sektorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish;
⇒ Xalqaro savdo shartnomalarini soddalashtirish va bojxona jarayonlarini tezlashtirish.
5. Xalqaro tajribadan foydalanish
⇒ AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarining ilg'or savdo modellarini o'rganish;
⇒ O'zbekiston brendini jahon bozorida ilgari surish va eksport hajmini oshirish;
⇒ Xizmatlar eksportini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish.

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda savdo xizmatlarini jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirish, ichki bozorni raqobatbardosh qilish va global bozorda o'z o'rnini mustahkamlash mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Abdulkarimov B. A. va boshq. (2016) *Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma.* – T. : Iqtisod-moliya, 504 b.
- Abdulkarimov I. (2010) *Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti.* Toshkent: Iqtisodiyot.
- Adam Smith. (1776) *The Wealth of Nations.* London: W. Strahan and T. Cadell.
- Brynjolfsson, Erik & Andrew McAfee. (2014) *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.* W.W. Norton & Company.
- David Ricardo. (1817) *Principles of Political Economy and Taxation.* London: John Murray.
- Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni. -T. : "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2022-yil, 28-yanvar – <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

- Hisobot (2022) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi (2022-yil yanvar-dekabr) hisoboti.*
- Joseph Schumpeter. (1934) The Theory of Economic Development. Harvard University Press.*
- Joseph Stiglitz, Paul Krugman. (2002) International Trade and Economic Policy. Mit press.*
- Karimov I.A. (1993) O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasi. Tashkent: O'zbekiston.*
- Kenneth C. Laudon, Carol Guercio Traver. (2020) E-commerce: Business, Technology, Society. Pearson.*
- Michael E. Porter. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. The Free Press.*
- OECD (2022) (Organization for Economic Co-operation and Development). Digital Trade and E-commerce Report. OECD Publishing.*
- Philip Kotler, Kevin Lane Keller. (2016) Marketing Management. Pearson Education*
- Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.*
- Qo'chqorov U. (2018) O'zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Toshkent: Fan.*
- Salimov I., Xodjayev A. (2017) Tijorat faoliyati va xizmatlar bozori. Toshkent: Iqtisodiyot.*
- Soliyev A., Buzrukxonov S. (2010) Marketing. Bozorshunoslik. Darslik. – T. : "Iqtisod-moliya", 294 b.*
- Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li (2023) O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. Iyul. № 7-son. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.*